

JADID MA'RIFATPARVARLAR ASARLARIDA
TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Ibragimova Zulayxo Karimbayevna

Xorazm viloyati yuridik texnikumi kafedra mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarning ta'lim va tarbiyaga oid bo'lgan ayrim mulohazalari falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvar, ta'lim, tarbiya, din, dunyoviy ilmlar.

В ТВОРЧЕСТВЕ НОВЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ
МЕСТО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ибрагимова Зулайхо Каримбаевна

Заведующий кафедрой Хорезмского областного юридического колледжа

Аннотация. В статье дается философский анализ некоторых взглядов современных просветителей на образование и воспитание.

Ключевые слова: жадид, просвещенный, образование, воспитание, религия, светские науки.

THE PLACE OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE
WORKS OF THE NEW ENLIGHTENMENTALISTS

Ibragimova Zulaykho Karimbayevna

Head of Department, Khorezm Regional Legal Technical School

Annotation. This article provides a philosophical analysis of some of the views of the modern enlighteners on education and upbringing.

Keywords: jadid, enlightened, education, upbringing, religion, secular sciences.

Ma'rifatparvar jadidlar xalqning ma'naviyati va madaniyati darajasini zamonaviy sa'viyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa kelajak bunyodkori bo'lgan yoshlarni Yevropaning eng nufuzli o'quv dargohlarida ta'lim olishini istaganlar. Ma'rifatparvar jadidlar yurt kelajagi bunyodkor yoshlar qo'lidaligiga ishonib, millat taraqqiyotining poydevorlari deb hisoblangan yosh avlodni millatning taraqqiyoti uchun mardonavor kurashishga chaqirganlar.

Til, tarix, din, yurt, el, kelajak uchun bir otashnafas shoir nima qilishi zarur bo'lsa, Hamza shularning hammasini qoyillatib bajargan. Uning she'rlari bir yoki ikki emas, o'nlab oliy maqsadlarga xizmat etgan. Bizni tashvishlantirayotgan, kundankunga harakatni kuchaytirishga undayotgan muammolarning yechimini Hamza alohida-alohida misra va baytlarida ham bayon etib ketgan. Aql nima, zavq nima, ilm

nima, ma'rifat nima, mushohada nimayu, mukoshafa nima – bizda bularni farqlaydiganlar nihoyatda oz.

Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan diniy qadriyatlar va kategoriyalar dunyoviy mazmunda qayta ishlab chiqildi. Masalan, jadidlarning otasi Mahmudxo'ja Behbudiy shunday yozadi: "dinsiz dunyoda yashash insoniyat va madaniyatdan mahrum. Imonsiz madaniy bo'lish qiyin" [1]. Mahmudxo'ja Behbudiyning so'zlariga ko'ra, imon inson psixologiyasi bilan bog'liq va imonsiz odam yo'q. Turli konfessiyalar vakillari o'z e'tiqodlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu o'z davrining juda ilg'or va hatto inqilobiy g'oyalari edi. Jadidlar diniy bag'rikenglikni, vijdon erkinligini targ'ib qildilar va ularga rioya qildilar. Ular dinlararo nikohlarga sodiq edilar: "har bir musulmon boshqa e'tiqodli xalqlar bilan turmush qurishga haqli" [1].

Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan milliy ta'lim tizimini rivojlantirish g'oyalari orqali jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilgan diniy va dunyoviy ilmlarning nisbati haqidagi qarashlar keyingi davr ijtimoiy-falsafiy qarashlarning bosh yo'nalishi tarzida butun Turkiston hududida keng quloch yozganining guvohimiz. Ta'kidlab o'tish joizki, jadidchilikning vujudga kelishida islom dinidagi diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi tamoyili, taraqqiyotga bo'lgan intilish, ilm-fan va diniy amallar muhim o'ringa ega bo'lgan.

Jadidlarning yangilik yaratishga bo'lgan ehtiyoji, dunyoviy ilmlarni targ'ib etishda Payg'ambarimiz Muhammad salloallohu alayhi vassallamning ushbu hadisi shariflari ma'naviy jihatdan negiz bo'lgan: "Oxiratini deb dunyosini tark qilgan ham, dunyosini deb oxiratini tark qilgan ham sizlarning yaxshingiz emas", "Dinda o'rtacha yo'l tutinglar, chunki ushbu din amallarini kim og'irlashtirib yuborsa uni amal yengib qo'yadi" [2]. Demak, jadidchilik islom dinida ulug'langan taraqqiyparvarlik, ilm-fanni o'rganishga bo'lgan rag'bat va dunyoviy bilimlarning yangi zamondagi yangicha ko'rinishi sifatida tashkil topgan. Jadidlar o'sha davrda mavjud bo'lgan islomiy bilimlarni har xil mutaassiblik bid'atlardan asrab rivojlantirishga urindilar. Bizning nazarimizda jadidlarning johillik va diniy muttassiblikni tanqid qilganliklari, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, vijdon erkinligi to'g'risidagi mulohazalari muhim ahamiyatga egadir. Ularning fikricha, yaratiladigan barcha qonunlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar bu hududda yashovchi hamma millat va elatlarning manfaatlarini aks ettirishi va himoya qilishi zarur. Ularning din va millatga zulm o'tkazish, tahdid qilish johillikning namoyon bo'lishi, ularning daxlsizligini ta'minlash yuksak ma'naviyat nishonasi ekanligi to'g'risidagi fikrlari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu boisdan ham "Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab jadidlar, ilm fan fidoyilari o'zlarining huzur- halovatlari, o'z manfaatini o'ylamasdan, millatning manfaati, Turkistonni rivojlantirish maqsadini ko'zda tutib qilgan ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydigan xotira bo'lib qoladi" [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlaridan ma‘lumki, kishilik jamiyati o‘z taraqqiyoti davomida ham diniy, ham dunyoviy ilmlarning barobar rivojlanishi uchun yetarli darajada imkoniyat tug‘ilgan davrlardagina jamiyat hayotida keskin burilishlar, yuksalish ro‘y bergan, Sharq renessansi davri buning yorqin misolidir. O‘z davrining ilg‘or shaxslari bo‘lgan jadid ma‘rifatparvarlari buni o‘z vaqtida anglab yetganlar va kechiktirib bo‘lmas vazifa sifatida qarab, bu borada muhim konseptual qarashlarni ilgari surganlar.

Jadidlar faoliyatida diniy va dunyoviy ilmlar millat dunyoqarashini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. To‘g‘ri o‘z davrida mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar diniy va dunyoviy ilmlarni ajratmaganlar. Ulardan keyingi davr faylasuflari ilmlarni tasnif qilar ekanlar, uni diniy va dunyoviyga ajratganlar. Jadidlar esa ularni o‘rganishni ilm-fan rivoji deganda ham dunyoviy, ham diniy ilmlarni, nazarda tutganlar. Dunyoviy yoki diniy sohadagi turg‘unlikning oqibati muqarrar inqiroz ekanini isbotlashga uringanlar. Sababi jadidlar davri Turkiston xalqlari boshqa millatlardan nafaqat taraqqiyotda orqada qolgan edilar, balki dinning asl mohiyati haqida fikr yuritishdan yiroqlashib, bid‘at-xurofotga botgan edilar. Bu haqda Istambuldan turkistonlik talabalar ming taassufda shunday deb yozgan edilar: “Bizning turkistonliklar shu qadar orqada qolgan hech bir millat qolmadi. Afriqo vaxshiylarida bizdin ilgaridurlar” [4].

Jadidlar falsafasida dunyoviylik, zamonaviy ilmlarni egallash, dinga xilof emas, aksincha, dinning talabi ekanligini Qur‘oni karim oyatlari, hadisi shariflardan parchalar keltirib isbotlab berishga harakat qilganlar. Shuning bilan bir qatorda ular Turkiston xalqining qoloqlik sabablarini aniqlashga harakat qilganlar. Xususan, Yevro‘pacha dunyoviy ishlarni egallamaslik qoloqlikning bosh sababchisi, deb tushunganlar. Ularning fikricha, o‘sha davrda hatto ko‘zga ko‘ringan din ulamolarining ham dunyo voqealaridan bexabarligi, islom bilan dunyoviy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega emasligi millatni jaholat botqog‘iga yetaklagan. Dunyoviy ilmlar insoniyatning barcha qatlamlari, turli davrlarda, turli qavmlarga mansub bo‘lgan insonlar tomonidan yaratilgan, shuningdek, mantiq ilmi va turli xil amaliy tajribalar asosida shakllangan ilmiy bilimlar bo‘lib biror diniy guruh yoki ularning manfaatlarini ko‘zlagan holda chegaralanmagan va dunyodagi jamiki insonlar uchun foydalanishga ochiq bo‘lgan. Shu boisdan ham Is‘hoqxon Ibrat o‘zining “Mezon uz-zamon” (“Zamon tarozusi”) [5] asarida ilohiyot nuqtai-nazaridan Yevropa sivilizatsiyasidan foydalanish muhimligini isbotlashga harakat qildi. U Qur‘on va hadislardagi qonun va qoidalarga binoan musulmon bo‘lmaganlarga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lish zarurligini e‘tirof etdi. Insonning bir ota – Odamdan va yagona ona – Momo havodan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi rivoyatga asoslanib, bashariyatning negizi yagonaligini ta‘kidladi va bu diniy bag‘rikenglikning andozasi bo‘lishi lozimligini e‘tirof etdi.

Shunday qilib, jadidlarning faoliyati jamiyatning turli jabhalarida, ijtimoiy-siyosiy hayotda boshqa harakatlardan ajralib turar edi. Asosan, Jadidchilik harakatining faoliyati ma'rifat va madaniyat sohasini yuksaltirishga qaratilgan edi. Ta'limni isloh qilish, jadidlar faoliyatining oltita islohotdan, *birinchisi edi*. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, usuli jadid maktablari ochish zaminida ham siyosiy masala – istiqlol, millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish, Turkiston aholisini taraqqiy topgan farovon millatlar qatorida ko'rish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, sho'rolar davrida jamiyatshunos olimlar tomonidan bu oqim faoliyati eng ko'p noilmiy talqin qilingan, ularning ko'plab namoyandalari, rahbarlari faoliyatini o'rganish man etilgan davr ham mana shu vaqtga to'g'ri keladi.

Ikkinchisi, taraqqiyparvarlar, avvalo, mahalliy xalq vakillarining xorijiy tillarni o'rganish orqali amalga oshirish, millat manfaatini himoya qilish, fan-texnika yangiliklarini egallashi, o'zlashtirishiga zamin yaratishini anglab tavsiyalar berganlar. Chunonchi, iqtisodiy taraqqiyotga erishish va mustamlaka sharoitida millat manfaatini himoya qilish uchun rus tilini o'rganish muhimligini yaxshi bilganlar.

Uchinchisi, mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Xalq orasidan savodli, ilm-fan, texnika asosini bilgan milliy kadrlar etishib chiqqandagina milliy davlat taraqqiyotiga erishish mumkinligini asoslab bergan.

To'rtinchidan, millatning asosini tashkil qiluvchi xotin-qizlarning, ayollarning ijtimoiy hayotda faol qatnashishlari tarafdori bo'lgan. Shu bilan birga, "Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish" [6] degan g'oyani hayotga izchil tatbiq etishgan.

Beshinchidan, jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot erkinligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish.

Oltinchidan, xalqimizni jahonning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan yetakchi davlatlar darajasiga ko'tarish yo'lini qidirib topish uchun harakatlari, Turkiston iqtisodiy rivojlanishining siyosiy, huquqiy asosi bo'lgan milliy mustaqillikka erishishini ta'minlash.

Turkistonni qoloqlikdan chiqarish yo'lida eng katta to'siq bo'lgan eskicha o'qitish usulini ta'limning yevropacha o'qitish tartibiga asoslangan yangicha usul bilan almashtirish va busiz ma'rifiy yuksalishga erishish mumkin emasligi masalalari jadidlarning bosh g'oyasi bo'lgan. "Islohni nimadan boshlarg'a" sarlavhali maqola muallifi: "Men ovrupa xalqining bu darajada taraqqiy va tolelarining birinchi sababini va bosh sababini ko'p axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarining mukammalligidan boshqa sabab topa olmadim. Va binobarin islohotimizni maktab ibtidolarimizdan boshlamoq darkor deb hisoblayman" [7], deb yozadi va Turkistondagi rus tuzem maktablari va eskicha madrasalarda amalda bo'lgan o'qitish dasturlari zamon

talablariga mos kelmasligi, xalqni qoloqlikka chorlayotganini shunday tushuntiradi: “madrasa talabalariga tarixi milliyat va hisob o‘qitmoq odati bizda o‘lda-jo‘lda, yoki aslo yo‘q. Jo‘g‘rofiya va riyozatga sayr qiluvchi darslarni, albatta, mudarrislarimiz o‘qimaydilar, shogirdlariga o‘qitmaydilar. Demak, bizning madrasa shogirdlarimiz nihoyatda past qadam bo‘lib qolmoqdalar” [7].

Xulosa qilib aytganda, jadid ma‘rifatparvarlari mamlakatni rivojlantirish, uni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida ko‘rish uchun, eng avvalo, yoshlarni ilm-ma‘rifatli qilishga kirishishgan. Yoshlarga ta‘lim berishda diniy va dunyoviy bilimlar, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga e‘tibor qaratishgan. O‘rta Osiyodagi barcha jadidchilarning rahnamosi hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqni ma‘rifatli bo‘lishga chorlab, bir nechta asarlar va maqolalar yozadi. U, asosan, xalqni “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikrlari bilan uyg‘otishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. - 280 б.
2. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 544 б.
3. Baldauf I. Jadidism in Central Asia in terms of reformism and modernism in the Muslim world // Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik). –) T.: Manaviyat, 2001. – B. 44-53.
4. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. –Б. 271-272.
5. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Мезон уз-замон. –Т.: “Маънавият”, 2005. – Б.16.
6. Ҳожи Муин Шукрулло. Мазлума хотун. //Самарқанд. 1916. - Б.4.
7. Muxtorov Sh. Islohni nimadan boshlarg'a // Sadoi Fargona. 1914-yil 3-aprel.